



STOMATOLOGIYA SOHASIDAGI PROFILAKTIK CHORA TADBIRLAR (ADABIYOTLAR SHARXI)

Kamoliddinov Farruxjon Farxodovich

Alfraganus universiteti Tibbiyot fakulteti

Stomatologiya yo'nalishi 5-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada stomatologik profilaktikaga oid muammolar, ularning sabab va oqibatlari, O'zbekistondagi va yetakchi davlatlardagi holat tahlil qilingan. Shuningdek, profilaktikani kuchaytirish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar Stomatologik profilaktika, bolalar sog'ligi, bog'cha, maktab, gigiyena, O'zbekiston, karies.

Аннотация. В данной статье проанализированы проблемы стоматологической профилактики, их причины и последствия, а также ситуация в Узбекистане и передовых странах. Кроме того, приведены практические рекомендации по усилению профилактики.

Ключевые слова: Стоматологическая профилактика, здоровье детей, детский сад, школа, гигиена, Узбекистан, кариес.

Abstract This article analyzes the problems of dental prevention, their causes and consequences, as well as the situation in Uzbekistan and leading countries. Practical recommendations for strengthening preventive measures are also provided.

Keywords: Dental prevention, child health, kindergarten, school, hygiene, Uzbekistan, caries.

Kirish. Tish sog'lig'i inson umumiyligining ajralmas qismi hisoblanadi. Afsuski, bugungi kunda bolalar orasida stomatologik kasalliklar, ayniqsa karies, keng tarqalgan bo'lib, ularning aksariyati erta yoshda boshlanadi. Maktabgacha va maktab yoshida profilaktik choralarning sustligi bu muammoning asosiy omillaridan biridir.

Stomatologik profilaktika deganda tish kasalliklarining oldini olish, erta aniqlash va ularni davolashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Bu profilaktika oilada boshlanishi, keyinchalik ta'lif muassasalarida davom ettirilishi lozim. Maktab va bog'chalarda bolalarga tish yuvish madaniyati, sog'lom ovqatlanish va muntazam stomatologik ko'riklar haqida ma'lumot berilishi kerak. "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" ga muvofiq aholiga tibbiy va tibbiy-ijtimoiy xizmatlar korsatish sifati va qulayligini oshirish, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, tibbiyot muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sog'liqni saqlash sohasini takomillashtirishga qaratilgan" Stomatologik kasalliklar profilaktikasi diagnostikasining yangi darajasi, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish orqali o'z vaqtida sifatli tibbiy yordam ko'rsatish va oldini olish og'iz bo'shlig'i kasalliklari darajasini pasaytirishga imkon beradi [1].

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Kamchiliklar: Ko‘plab odamlar tish cho‘tkalari, tish pastalari, eliksirlar, chayish vositalari kabi maxsus gigiyena vositalardan to‘g‘ri foydalanish bo‘yicha yetarli ma’lumotga ega emaslar. Bu esa og‘iz bo‘shlig‘i salomatligini saqlashda muammolarga olib keladi. Stomatologik kasalliklarning oldini olish uchun zarur bo‘lgan profilaktik chora-tadbirlar ko‘plab hollarda to‘liq yoki muntazam ravishda amalga oshirilmaydi. Bu esa kasalliklarning oldini olishda samaradorlikni pasaytiradi. Og‘iz bo‘shlig‘ining professional va individual gigiyenasi stomatologik kasalliklarning oldini olishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, ko‘plab hollarda bu ikki jihat o‘rtasida yetarli muvozanat saqlanmaydi [2].

Mas’uliyatni boshqa tomonlarga yuklash: Siyosatchilar, stomatologlar va bemorlar bir-birlarini profilaktikaga e’tibor bermaslikda ayblashadi. Moliyaviy rag’batlarning yetishmasligi: Profilaktik xizmatlar uchun to‘lovlarning yetarli emasligi stomatologlarni bu xizmatlarni ko‘rsatishda qiziqishini kamaytiradi. Stomatologlarning roli haqida tushunmovchilik: Ba’zi stomatologlar profilaktikani o‘zlarining vazifasi deb hisoblamaydilar. Bemorlarning bilim darajasi pastligi: Bemorlar og‘iz bo‘shlig‘i salomatligini saqlash bo‘yicha yetarli ma’lumotga ega emaslar [3].

Dunyodagi yetakchi davlatlar tajribasi: Shvetsiyada bolalar va o’smirlar uchun stomatologik xizmatlar davlat tomonidan moliyalashtiriladi. Davlat stomatologik xizmati (Public Dental Service) orqali bolalar muntazam ravishda stomatologik ko‘riklardan o‘tadilar [4].

Norvegiyada 0–18 yoshdagи bolalar uchun stomatologik xizmatlar bepul taqdim etiladi. Maktablarda stomatologlar faoliyat yuritib, bolalarni muntazam ko‘rikdan o‘tkazadilar [5].

Yaponiyada bolalar uchun stomatologik pasport tizimi joriy etilgan bo‘lib, bu orqali bolalarning og‘iz bo‘shlig‘i salomatligi holati kuzatib boriladi. Yillik stomatologik ko‘riklar majburiy hisoblanadi [6].

AQShda maktablarda stomatologik tarbiya va og‘iz gigiyenasi bo‘yicha maxsus darslar mavjud. Bu darslar orqali bolalarga og‘iz bo‘shlig‘i salomatligini saqlashning ahamiyati o‘rgatiladi [7].

Bolalar og‘iz salomatligi: muammolar va yondashuvlar. Indoneziyada 6–12 yoshdagи bolalarning 93% og‘iz bo‘shlig‘i salomatligi muammolariga duch keladi. Bolalarning shirin va yopishqoq oziq-ovqatlarni iste’mol qilishga moyilligi va og‘iz bo‘shlig‘I salomatligini saqlash bo‘yicha yetarli bilimga ega emasligi muammolarni kuchaytiradi. Ota-onalar va maktablar bolalarga og‘iz bo‘shlig‘i salomatligini saqlash bo‘yicha ta’lim berishda muhim rol o‘ynaydi [8].

Og‘iz bo‘shlig‘i salomatligi va yurak-qon tomir kasalliklari o‘rtasidagi bog‘liqlik. Yurak-qon tomir kasalliklariga chalingan bemorlar uchun og‘iz bo‘shlig‘i salomatligi bo‘yicha ta’lim dasturlari ularning umumiyligi sog‘lig‘ini yaxshilashga yordam beradi. Og‘iz bo‘shlig‘i salomatligi yurak-qon tomir kasalliklari uchun o‘zgartiriladigan xavf omili hisoblanadi [9].

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Ftorli mahsulotlar va kariesning oldini olish. Ftorli tish pastasi tish kariesining oldini olishda samarali hisoblanadi. Ftorli og‘iz chayqovchi vositalar va laklar tish emalini mustahkamlab, karies rivojlanishini kamaytiradi [10].

Karies va periodont kasalliklarining oldini olishda ftorli mahsulotlar, og‘iz bo‘shlig‘i gigiyenasi, va sog‘lom ovqatlanish asosiy rol o‘ynaydi [11].

Og‘iz bo‘shlig‘i salomatligi targ‘iboti odamlarning og‘iz gigiyenasi haqidagi bilimlarini oshirishga yordam beradi. Ta’lim dasturlari, ayniqsa bolalar va yoshlar orasida, stomatologik kasalliklarning oldini olishda samarali. Ijtimoiy va iqtisodiy omillar ham profilaktik choralarning muvaffaqiyatiga ta’sir ko‘rsatadi [12].

Vitamin D qo‘shimchalari karies xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Shuningdek, muntazam tish tozalash va professional stomatologik ko‘riklar profilaktikani kuchaytiradi [13].

Kattalarda ftorli tish pastalari, fissura lakkari va tishlarni muntazam parvarishlash kariesning oldini olishda samarali. Shifokorlar stomatologik profilaktika bo‘yicha aholini muntazam o‘rgatishlari zarur [14].

Sog‘lom ovqatlanish, shakar iste’molini cheklash va ftorlangan suvdan foydalanish, parhez va gigiyena choralar birgalikda qo‘llanilganda, stomatologik sog‘lomlik darjasini sezilarli yaxshilanadi [15].

Kumush diamin ftoridi (SDF) – kariesni to‘xtatishda va oldini olishda samarali vosita sifatida ishlatiladi. Bu usul ayniqsa kam resursli hududlarda va bolalar stomatologiyasida qo‘llaniladi [16].

Ayollarda homiladorlik, menopauza kabi hayotiy davrlarda og‘iz bo‘shlig‘i salomatligiga alohida e’tibor kerakligi ta’kidlangan. Gormonal o‘zgarishlar tish va og‘iz muammolarini kuchaytirishi mumkin, shuning uchun profilaktik choralar muhim [17].

Shakar va shirinliklarni iste’mol qilishni cheklash. Kalsiy, fosfor va vitamin D ga boy mahsulotlarni (sut mahsulotlari, baliq, yong‘oqlar) iste’mol qilish. Qattiq meva va sabzavotlarni (sabzi, olma) iste’mol qilish orqali tishlarni tabiiy tozalash. Tishlarni kuniga ikki marta, ertalab va kechqurun, ftorli tish pastasi bilan tozalash. Tishlar orasini tozalash uchun tish ipidan (floss) foydalanish. Og‘iz bo‘shlig‘ini antiseptik eritmalar bilan chayish [18].

Xulosa va tavsiyalar: Profilaktika asosiy ahamiyatga ega. Stomatologik kasalliklarni davolashdan ko‘ra oldini olish samaraliroq va iqtisodiy jihatdan foydalidir. Karies va parodont kasalliklari kabi keng tarqalgan muammolarni oldini olish uchun muntazam gigiyena va tibbiy nazorat zarur. Individual yondashuv lozim. Har bir bemorning tish salomatligi, kasallik xavfi va hayot tarzi hisobga olinib, individual profilaktik choralar ishlab chiqilishi kerak. Kasallik xavfi yuqori guruhlar uchun qo‘shimcha choralar. Yoshi katta odamlar, bolalar, homilador ayollar va surunkali kasalliklarga ega bemorlar uchun maxsus profilaktik vositalar (ftorlash, tish muhrlari, professional tozalash) muhim. Sog‘lom turmush tarzi va ovqatlanish. Shakarli va kislotali oziq-ovqatlar iste’molini kamaytirish, to‘yimli va vitaminlarga boy ovqatlanish stomatologik kasalliklar rivojlanishini oldini oladi. Muntazam stomatolog ko‘riklari. Har 6 oyda stomatologga

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

borib, kasalliklarni erta bosqichda aniqlash va davolash, kasalliklarning oldini olishga yordam beradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Kubayev A. S., Axrorova M. Sh., Indiamanova. N., Arzikulova M. Sh. Stomatologik kasalliklar profilaktikasi sahifa. Fevral 2021.
2. Sh.N.Baratova, M.Z.Zubaydullayeva. “Tish kariesi profilaktikasining zamonaviy tadqiqotlari” Science and Education, 6 (2), 120–124, 2025.
3. H. Leggett, J. Csikar, K. Vinall-Collier, “Whose Responsibility Is It Anyway? Exploring Barriers to Prevention of Oral Diseases across Europe” Journal of Dental Research, 2021
4. Raimo Pälvärinne, Dowen Birkhed, Eeva Widström, “The Public Dental Service in Sweden: An Interview Study” Journal of International Society of Preventive and Community Dentistry, Pages 205-211, 2018
5. Helsenorge – Norvegiya sog‘liqni saqlash portal “Who pays your dental bill?” <https://www.helsenorge.no/en/payment-for-health-services/who-pays-your-dental-bill/>
6. Mitsuro Tanaka “Comparison of Regular Dental Check-ups of Children in Japan with Other Countries” The Japanese Journal of Pediatric Dentistry Pages 16-21 2016
7. J. M. Dunning and N. Dunning, “An international look at school-based children’s dental services” American Journal of Public Health Pages 664-668 1978
8. Harun Achmad, Riana Noor Armedina, Tatiana Timokhina, Vitaly V. Goncharov, Rini Sitanaya, Eriska Riyanti “Literature Review: Problems of Dental and Oral Health Primary School Children” March 2021
9. L. A. Church,L. Robins,F. Xu,L. Qin,A. Tran,J. P. Wallace,S. King “Oral health education strategies for patients living with cardiovascular disease” Frontiers in Public Health Volume 12, Article number 1389853, June 2024
10. Nélio Veiga, Ricardo Figueiredo, Patrícia Correia, Pedro Lopes, Patrícia Couto, Gustavo Vicentis Oliveira Fernandes “Methods of Primary Clinical Prevention of Dental Caries in the Adult Patient” Journal of Healthcare Volume 11 Article number 1635 June 2023
11. R. W. Sumnicht “Review of preventive dentistry research” The Journal of the American Dental Association (JADA) Volume 79 Pages 1193-1201 November 1969
12. A.J. Sprod, R. Anderson, E.T. Treasure, “Effective oral health promotion: literature review” Database of Abstracts of Reviews of Effects (DARE), NCBI Bookshelf 1996
13. Claudio Sicca,Elena Bobbio “Prevention of dental caries: A review of effective treatments” Journal of Clinical and Experimental Dentistry,December 2016
14. Nilio Veigo,Ricardo Figueiredo “Methods of Primary Clinical Prevention of Dental Caries in the Adult Population” Healthcare 2023, 11(11), June 2023
15. Steffany Chamut,Mona Alhassan “Every bite counts to achieve oral health: a scoping review on diet and caries prevention” (BMC Public Health) International Journal for Equity in Health 23, Article Number:261, December 2024

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

16.Saeed.S Alqalaleef,Rabab A.Alnakhli, Yousef Ezzat,Hamad I.AlQadi,Zuhair S.Natto “The role of silver diamine fluoride as dental caries preventive and arresting agent” Frontiers in Oral Health, Volume-5,26 November 2024

17.Julia Lange Kessler “A Literature Review on Women’s Oral Health Across the Life Span” (ScienceDirect), Nursing for Women’s health Volume 21, Issue 2, Pages 108-121, April-May 2017

18. Daminova M.I. “Kattalarda karies kasalligining individual profilaktikasi”, International Conference on Language and Teaching,Volume 1 Pages 470-472, June 2022

